

## KICHIK YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILİYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA QO'G'IRCHOQ TEATRINI O'RNINI VA AHAMIYATI

Eshova Dilbar Shonazarovna,

Buxoro davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0002-7441-4367>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.019>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat turlari, ularning mazmuni, qo'g'irchoq teatri orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida o'rganish hamda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, qo'g'irchoq teatri orqali bolalar nutqini o'stirish usullari, adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, jamoa bo'lib ishlash, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni oshirish kabi xususiyatlar haqida tushuncha ko'rsatib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Ijodiy faoliyat, badiiy ijod, qo'g'irchoq teatri, estetik sezgi, san'at asarlari, estetik tarbiya*

## МЕСТО И ЗНАЧЕНИЯ КУКОЛЬНОГО ТЕАТРА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*Аннотация: В данной статье рассматриваются виды творческой деятельности в дошкольных образовательных организациях, их содержание, обучение посредством театра кукол как средства художественно-эстетического и духовно-нравственного воспитания дошкольников, а также развитие интеллектуального, нравственного, эстетического видов воспитания. Метод развития речи детей, формирования у них интереса к литературе, работы в коллективе, воспитания уважения к национальным ценностям и т. д. показан через театр кукол*

*Ключевые слова: Творческая деятельность, художественное творчество, театр кукол, эстетическое чувство, произведения искусства, эстетическое воспитание*

## PLACE AND MEANINGS OF THE PUPPET THEATER IN FORMATION OF CREATIVITY PRESCHOOL CHILDREN

*Abstract. This article discusses the types of creative activities in preschool educational organizations, their content, training through puppet theater as a means of artistic, aesthetic, spiritual and moral education of preschool children, as well as the development of intellectual, moral, aesthetic types of education. The method of developing children's speech, developing their interest in literature, working in a team, instilling respect for national values, etc. is shown through puppet theater*

*Keywords: Creative activity, artistic creativity, puppet theater, aesthetic sense, works of art, esthetic education*

**KIRISH.** Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimini tubdan o'zgartirish borasida olib borilayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash va amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir deb bilamiz.

Ta'lim tashkilotlarining bir turi sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti, shubhasiz, ularning har qaysisiga xos, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnoda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati boshqa ta'lim tashkilotlarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qilishini ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida turli qo'g'irchoq teatri turlaridan mashg'ulotlar jarayonida hamda bolalarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishda keng ko'lamda foydalanish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs

sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'nalishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi.

“Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish” fanining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish ishlarini olib borish, bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» va «Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi» asosida MTTda ijodiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, bolalar ijodiga, qo'l mehnati faoliyatiga rahbarlik qilishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda tashkilotda ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining vazifasi MTMda bolalarni sahnalashtirish, aktyorlikka tayyorlash, ijodiy faoliyatini tashkil etishga, qo'l mehnatiga, badiiy mehnatga qiziqishlarini uyg'otish, mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo'naltirish; bolalarda ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg'otish; qog'oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va ko'nikmalarini tarbiyalashi; buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirishda, tayyorlash texnologiyasini o'rgatishda, mahsulotni tejashda, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o'rgatishda; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish hamda badiiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdan iboratdir.

Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo'l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko'rinishini o'zgartirishi ham mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti Bolalar ijodiyoti va uning o'ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko'pgina bilimlarga ega bo'limlarni talab etadi. Pedagog san'atda bu faoliyat qanday harakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak deb bilaman.

Bolalarni atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o'z faoliyatlarida ya'ni o'yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradi. Bolalar tasviriy faoliyatida atrof-olamdan olgan tassurotларini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar. Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida o'ziga xos harakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o'z his-tuyg'ularni turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida qaralayotganligi bugungi kunda ko'pchilik MTT tarbiyachi –pedagoglariga ham ayon emas. Shu boisdan mazkur monografiyada aynan qo'g'irchoq teatrining bola shaxsi shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida ilmiy, pedagogik- psixologik adabiyotlar asosida va tajriba sinov ishlari orqali o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, masalaga oid tegishli tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgandir.

Har bir shaxsda estetik xususiyatlari tug'ma emas, ammo ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarga estetik idrok, tasavvur, tushunchalar haqidagi mulohazalarni, qiziqishlar, his-tuyg'ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirish amalga oshiriladi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, xali ularning

estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarining shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumlarga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bola hayotining 2- yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas. shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

Har bir shaxsning estetik xususiyatlari tug'ma emas, ammo ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarni estetik idrok, tasavvurini, tushunchalarini, mulohazalarini, qiziqishlarini, his-tuyg'ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirish amalga oshiriladi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalar nazarda tutganda, xali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarining shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi va kattalarning ogohlantiruvchi ovozida, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bolalar hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrining eng ko'p foydalaniladigan turi sahnada ko'rsatilgan qo'g'irchoq teatridir. Bunda qo'g'irchoqlarni boshqarishiga qarab quyidagilarga bo'linadi. Bular barmoqlar va qo'l yordamida, stol ustida, soyali, ipli-trosli, qo'lga kiyib boshqariladigan qo'g'irchoqlardir. Sahnada shirmani ko'zda tutish kerak. Qo'g'irchoq o'ynatuvchilar sahnaning ortida yashirinib turadi va qo'g'irchoqlarni boshqaradilar bu bolalarga qiziqish uyg'otadi.

Bilamizki qo'g'irchoq teatri – xalq teatridir. U o'z tarixiga egadir. Xalq uni katta qiziqish bilan tomosha qilgan. Teatrni ko'rish ochiq maydonda tashkil qilgan uchun uni minglab odamlar tik turib ko'rishgan. O'z davri voqealarini tasvirlagan. Ularni kulgili qilib ko'rsata olgan. Hozirgi vaqtda esa qo'g'irchoq teatri yanada takomillashgan, tajribali rejisyor rahbarligi ostida yaratilib, uni mohir artistlari ijro etganlar. Qo'g'irchoq teatri ancha qulayliklarga ega hisoblanadi. Masalan, unda qahramonlar qiyinchiliksiz harakatlarni bajara oladilar ya'ni (balandga uchadilar, poezd yoki mashinada keladilar, ot-aravada yoki uchar gilamda uchib keladilar). Bu manzaralarni qo'g'irchoq teatrida ko'rsatish mumkin, ammo boshqa teatlarda ko'rsatish imkoniyati yo'q. Bu qo'g'irchoq teatrining boshqalariga nisbatan qulaylikka ega ekanligini ko'rsatadi. Lekin, ana shularga qaramay unda yetishmovchiliklar ham bor. Bu shunday ko'rinadiki, unda qo'g'irchoqlarning yuz ifodasini o'zgartira olmaydi, kulish kerak bo'lsa, yoki yig'lash kerak bo'lsa ular bajara olmaydi, ammo ularni o'rnini ovoz beruvchining intonatsiyasi, uni boshqaruvchi odamning harakati bilan ko'ngildagidek amalga oshirsa, jonlilik bahsh etish mumkin. Qo'g'irchoqning qo'li uni o'ynatuvchining barmog'iga kiritilgan bo'lgani uchun uning harakatlari chegaralanib qoladi: uning tirsagi bukilmaydi, u qo'lini xar tomonga harakatlantira olmaydi. Uning butun tanasi tomoshabinga ko'rinadi, faqat oyoq tomoni tizzasidan pastrog'igacha ko'rinadi, shuningdek uning oyog'i hech qandaya xam uyatli vazifa bajarmaydi. Shunday bo'lishiga qaramay bolalar teatrni juda yahshi ko'radilar. Undagi voqealarga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar, qahramonlarning quvonchlari

bilan quvonadilar, g'amlariga sherik bo'ladi bolalar.

Qo'g'irchoqlar bolalarda katta taassurot qoldirishi ma'lum. Hech kim bilan chiqisha olmaydigan bolalar va indamas, yuvvosh, injiqroq bolalar xam spektakldan keyin o'z taassurotlarini, qiziq va qoyil bo'lgan joylarini eslab umumiy suxbatga qo'shilib ketadilar. Qo'g'irchoqlarning kiyimlari, ularning

bajargan harakatlari va so'zlarini uzoq vaqtgacha eslab yuradilar. Lekin tarbiyachining qo'lida turgan qo'g'irchoq ham katta ahamiyatga ega. Bu shunda ko'rinadiki, tarbiyachi qo'g'irchoqni qo'lga kiyib olib u bilan bolalar oldiga keladi: qo'g'irchoq bolalar bilan gaplashadi, ular bilan biroz sho'xlik qiladilar, ularni erkalaydi, ayrim bolalarni ovutadi, biror narsa aytib berishni yoki biror harakatni bajarib berishini so'raydi. Bolalar uni aytganlarini albatta bajarishga harakat qiladilar, u bilan ko'proq o'ynashni xohlaydilar. Ammo, Maktabgacha ta'lim tashkilotida teatr uchun o'yinchoqlar yetarli emas. Qo'g'irchoqni boshqarilishi qiyin, undan hech narsa chiqmaydi, foydasi yo'q deb o'ylaydi. Bu noto'g'ri, albatta. Shunday bog'chalar borki, bu soha bilan butun jamoa jam bo'lib, bolalarga qiziq-qiziq spektakllarni ko'rsatadilar. Unday jamoalardan o'rnak olsa arziydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarda o'rab turgan muhit, turmush estetikasi ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo'lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko'rsa, tevarak-atrofdan olingan taassurotlar ijobiy tavsifga ega bo'lsa, u kichikligidanoq estetik borliqni o'zi uchun me'yor sifatida qabul qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatishi lozim.

Biz bilamizki, teatr san'ati bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi. Bolalar teatr san'ati bilan kun sayin muloqot qilib borar ekan, bolalar bir-biriga nisbatan toqatli, kelishuvchan, og'irbosiq bo'lib, o'zini tartibga solib oladi. Teatr maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va kayfiyati (ruhiyati) ga kuchli emotsional ta'sir o'tkazadi, ularning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqini boyitadi, axloqiy-ma'naviy tasavvurini shakllantiradi, aqliy tasavvurlarini rivojlantiradi, intellektual qobiliyatlarini oshiradi. Teatr bolani ma'naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o'ynab, quvonadi, o'ynab atrof olamni o'rganadi, ya'ni uning emotsional olami boyiydi. Bolada ijodga e'tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo'lishi uning ta'surotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan bu kabi faoliyati bolalar hayotiga yangi qimmatli mazmun olib kiradi, quvonch hissini uyg'otadi, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi. Hamma bolalar spektakllarni yaxshi ko'radi. Ularga nafaqat tomosha qilish, balki artist bo'lish yoqadi. Teatr san'ati bolalarga yaqin va tushunarli, chunki uning asosida o'yin yotadi. Teatrda o'ynash va bolalar o'yini aynan bir xil shartlilikdan kelib chiqadi va o'zida voqelikni har bir inson ko'ra oladigan va ifodalay oladigan darajada fokuslaydi. Bolalarda o'yinga bo'lgan ehtiyoj, shubhasiz, katta va u juda erta namoyon bo'ladi. Ikki uch yoshidayoq kichkintoylar sakrayotgan quyoncha va ona tovuqqa ergashayotgan jo'jachalarni tasvirlaydi. Ular jon-dili bilan kuchukcha, mushukcha, uloqchalar qiyofasiga kiradi. Ular imitatsiyalash va taqlidiy harakatlarni bajaradi, bu harakatlar hamisha rejali, ammo favqulodda boy va shu sababli o'zida katta emotsional quvvatni jamlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari:

1. Teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratish.
2. Bolalarni teatr madaniyatiga oshno qilish.
3. Pedagogik jarayonda teatrlashtirilgan va boshqa faoliyat turlari o'zaro aloqadorligi uchun sharoit yaratishi muhimdir.

4. Bolalar va kattalarning hamkorlikdagi teatrlashtirilgan faoliyati (bolalar, ota-onalar, xodimlar ishtirokida birgalikda spektakllar qo'yish; katta guruh bolalarining kichik tarbiyalanuvchilar oldida chiqishlarini tashkil qilish va h.k.

Umuman olganda, qo'g'irchoq teatr san'ati, boshqa teatr san'ati turlaridan o'ziga xos obraz yaratishi xususiyati bilan farq qiladi. Qo'g'irchoq teatr aktyori, rassom va qo'g'irchoq ustasi hamkorligida yaratgan san'at asariga, ya'ni qo'g'irchoqqa jon bag'ishlaydi. Aktyor qo'g'irchoq orqali sahnada turib tomoshabinga yurak dardini tabiatga, ona Vatanga bo'lgan muhabbatini, orzu-umidlarini, shirma orqasidan o'zi ko'rmagan holda izhor etadi. Ana shunda qo'g'irchoq sahnasida mo'jiza yuz beradi. Oddiy predmet – material jonlanadi va u ham inson kabi yashayotganligiga, nafas olayotganiga, umuman borligiga tomoshabin ham ishonib qo'g'irchoq bilan yig'laydi, kuladi, qayg'uradi.

Teatrlashtirilgan o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati ham juda katta. Bolalar bir-biriga hurmatni

rivojlantiradilar. Ular muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishi, o'z-o'zidan shubhalanish bilan bog'liq quvonchni o'rganadilar. Shubhasiz, teatr faoliyati bolalarni yangilikni idrok eta oladigan, improvizatsiya qilish qobiliyatiga ega ijodiy shaxs bo'lishga o'rgatadi. Biz bilamizki bolalarning teatr o'yinlariga bo'lgan ishtiyoqi, ularning ichki qulayligi, bo'shligi, kattalar va bola o'rtasidagi oson, avtoritar bo'lmagan aloqa, deyarli darhol yo'qolib ketadigan «men qila olmayman» kompleksi - bularning barchasi hayratda qoldiradi va o'ziga jalb qiladi.

Yoshlarni ezgu g'oyalar asosida tarbiyalashda, ularning madaniyati, ma'naviyati va dunyoqarashini kengaytirish hamda beg'ubor qalblarini munavvar tuyg'ulari bilan oshno qilish kelajakda yetuk, barkamol, vatanga muhabbat, ota-onaga xurmat, farzandlik burchini yurakdan ado etish, el manfaati yo'lida fidoyilik va insoniylik fazilatlarini ruhida kamol toptirish, xullas bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun san'atning ta'sirchan vositalaridan biri bu, teatrdir. Biz bilamizki, «Teatr san'atining qudrati shundaki, u dramaturg, aktyor, rejissyor, rassom, sozanda, raqqos va boshqa ko'plab sahna arboblarning ijodiy mehnatini bir butun qilib birlashtiruvchi kollektiv ijodkordir.», «Teatr voqeltni san'atning turlari yordamida aks ettirib, uni har tomonlama, harakat va rivojlanishda jozibali qilib ko'rsatar ekan, bir vaqtning o'zida ming-minglab tomoshabinlarning ruhiy olamiga chuqur kirib, uning dil torlarini cherta oladi», - degan fikrlarni yozgan edi V. G. Belinskiy.

Yosh tomoshabinning san'atga oshnoligi ilk bor maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatridan boshlanadi. Shuning uchun u bu dargohni tez-tez qo'msaydi, hal eta olmagan jumboqlarga shu dargohdan javob topadi. Shu sababdan qo'g'irchoq teatri spektakllari yosh tomoshabinlarga tushunarli, janr jihatidan rang-barang, zamon talabiga javob bera oladigan mukammal mazmunga ega, g'oyaviy jihatidan yetuk asarlari bo'lishi shart». Jajji bolajonlarimiz uchun teatrlar ichida qo'g'irchoq teatrining o'rni va ahamiyati juda muhimdir. Qo'g'irchoq teatri tomoshalari bolalarga bir olam zavq bag'ishlaydi. Ularning ongida mehr-muhabbat, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni paydo qiladilar.

Qo'g'irchoq teatrining yana bir muhim jihati shundaki, yoshlarni sahna san'ati, sahna madaniyatiga oshno qilishdir. Ular bolalikdan asta-sekin balog'at yoshiga yetgani sayin mavzular o'zgarib boradi va yoshlar teatri, musiqali drama teatri shu kabi teatrlarda spektakllar tomosha qilishga o'tadi. Lekin shu davrgacha birinchi navbatda dunyoqarashini shakllantiradigan teatr bu - qo'g'irchoq teatri hisoblanadi. Chunki, bolalikda olingan har qanday bilim va ko'z bilan ko'rilgan taassurotlar bir umrga bola ongida saqlanib qoladi.

Bizga ma'lumki qo'g'irchoq teatri o'zining qadimiy va boy tarixiga ega. Qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos - sehrli olami, dunyosi mavjud. Demak sehrli olamga sayohat qilar ekansiz albatta bosh sehrgarlarga duch kelasiz. Odatda bu sehrgarlar - aktyorlar hisoblanadi. Ular yordamida biz ertaklar olamiga sayohat qilamiz. Ertak qahramonlarining yaxshi-yomon tomonlarini, sarguzashtlarini, xullas, boshidan kechirganlarini aktyorlar ijrosi orqali qo'g'irchoq teatri sahnasida tomosha qilamiz. Qo'g'irchoq teatri aktyorining eng katta yordamchisi qo'g'irchoqlardir. U spektakl mavzu va g'oyasiga mos ravishda qo'g'irchoq rassomi va qo'g'irchoq ustasi tomonidan tayyorlanadi.

Aktyorlar jonsiz bo'lgan oddiygina qo'g'irchoqlarning gapirishi, inson singari xursand yoki xafa bo'lishi, uxlashi, og'iz va ko'zlarini harakatlantirib, mohirona boshqarib qahramonlarga ovoz berishadi. Qo'g'irchoq teatrining sehrli olamida qahramonlarning xatti-harakatlarini jon-u dili bilan tomosha qilayotgan, undan ruhan ozuqa olayotgan murg'ak qalblarni ko'rgan kishida zavq, shavq uyg'onadi.

Qo'g'irchoq teatri san'ati halqimizning hamda butun jahondagi xalqlarning eng boy qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi xuddi balet teatri, musiqiy va dramatik teatrlari kabi o'z yo'nalishiga ega bo'lgan mustaqil teatrdir. Qo'g'irchoq teatri boshqa teatrlardan yaqqol ajralib turadi. Chunki, boshqa teatrlarda aktyorlar sahnada tomoshabinlar oldida jonli planda namoyon bo'lsa, qo'g'irchoq teatrida esa aksincha qo'g'irchoq aktyorlari shirma ortida bo'lishadi. Bundan ko'rinib turibdiki Hozirda Respublikamizdagi davlat qo'g'irchoq teatrlarida qo'lqopli, simli qo'g'irchoq turlaridan keng foydalanilib kelinmoqda. Biroq, bugungi zamonaviy jarayonlar jajjigina bolalarni ham har taraflama «pishitib» bormoqda. Maktabgacha ta'lim yoshli bolalarning so'ngi rusumdagi kompyuter texnologiyalari va telefon apparatlaridan foydalanib, multfilmlar tomosha qilar ekan, bu jarayonlarda ularni spektakl sahnasidagi tomoshalarga «ishontirish», mazkur tomoshalar orqali ular ruhiyatini tarbiyalash o'z dolzarbligini yanada oshirib boraveradi. Bu jarayonlarda sahnada media vositalaridan keng foydalanish hamda qo'g'irchoq yasash texnologiyalari va boshqarish mexanikalarini dunyoning rivojlangan davlatlaridan o'rganib, qiyosiy tahlil qilgan holda, yangicha usullarni, innovatsiyalarni, jalb etib Respublika qo'g'irchoq teatrlariga tadbiiq etish muhim ahamiyatga ega, nazarimda.

Qo'g'irchoq teatri san'ati halqimizning hamda butun jahondagi xalqlarning eng boy qadimiy san'at turlaridan biri xisoblanadi xuddi balet teatri, musiqiy va dramatik teatrlari kabi o'z yo'nalishiga ega bo'lgan mustaqil teatrdir. Qo'g'irchoq teatri boshqa teatrlardan yaqqol ajralib turadi. Chunki, boshqa teatrlarda aktyorlar sahnada tomoshabinlar oldida jonli planda namoyon bo'lsa, qo'g'irchoq teatrida esa aksincha qo'g'irchoq aktyorlari shirma ortida bo'lishadi. Bundan ko'rinib turibdiki Hozirda Respublikamizdagi davlat qo'g'irchoq teatrlarida qo'lqopli, simli qo'g'irchoq turlaridan keng foydalanilib kelinmoqda. Biroq, bugungi zamonaviy jarayonlar jajjigina bolalarni ham har taraflama «pishitib» bormoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning so'ngi rusumdagi kompyuter texnologiyalari va telefon apparatlaridan foydalanib, multfilmlar tomosha qilar ekan, bu jarayonlarda ularni spektakl sahnasidagi tomoshalarga «ishontirish», mazkur tomoshalar orqali ular ruhiyatini tarbiyalash o'z dolzarbligini yanada oshirib boraveradi.

Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axlohiy-estetik sifatlarini shakllantirishda hamkorlik aloqalari muhim o'rin tutadi. Masalan, davlat qo'g'irchoq teatrlariga tashrif buyurish orqali bolada qo'g'irchoq va uning xatti-harakatlari, qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etish jarayoni to'g'risida yorqin tushunchalar hosil bo'lsa, oilalar bilan hamkorliknatijasida bolaning ichki kechinmalari, orzu-istaklari, qiziqishlari xususida bir qator ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Shuni aytib o'tish lozimki, mustaqillik yillari o'zbek qo'g'irchoq teatri taraqqiyotda muhim davr bo'ldi. Qo'g'irchoq teatri boshqa turdagi san'atlar orasida o'z o'rnini egallay boshladi. Qo'g'irchoq tomoshalarida madaniy-ma'rifiy masalalarni keskin muammo sifatida qo'yildi. Unda nafaqat bolalar, balki kattalar hayotiga aloqador muammolar kun tartibiga olib chiqildi.

Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ongiga o'zbek xalq madaniy merosi – xalq og'zaki ijodi, hikoya va ertaklardagi bosh asosiy g'oyani singdirish, ularning qo'g'irchoq teatriga, san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va shu orqali ularda Vatanga muhabbat, o'tmish tariximizga hurmat, xalqqa sadoqat, do'stga vafo, ota-onaga g'amxo'rlik tuyg'ularini singdirish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitida ma'lum yo'nalishlarda qo'g'irchoq teatrlarining keng yo'lga qo'yilishi, qo'g'irchoq o'yinlardan mashg'ulotlar jarayonida samarali foydalanish, bu borada mavjud qo'g'irchoq teatrlari bilan hamkorlik o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, ularning milliy kadriyatlar, an'analarimiz haqida yanada teran mushohada yuritishlari maqsadida turli ertaklar, hikoyalar o'qib berish, asar qahramonlari orqali ularda insoniy fazilatlarini shakllantirish samarali natija beradi. Har bir teatr suhbatlarida uning tarbiyaviy ahamiyati, mazmun- mohiyatini tarbiyalanuvchilarda chuqur anglatishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berish kutilgan samarani berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-637-son 23.09.2020. 8-moddasi

3. "Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Xalq so'zi gazetasi 30.09.2020

4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil

5. Asqarova D.Q. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish (o'quv qo'llanma), Namangan, 2018y.-92b.

5. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" Science and Education»Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1

6. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013

7. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010y.

8. Teshaboyeva Z. S. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish (o'quv o'llanma). Toshkent, 2020y. -114b.

9. Eshova D.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatrining ahamiyati (Monografiya) Buxoro. 2022y.-101b.

10. Eshova D.Sh. Развитие творческих способностей детей дошкольного возраста средствами